



“BUXORO ADABIY MUHITI: KECHA VA BUGUN”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy
ANJUMAN
MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO
VILOYATI BO‘LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV
NOMIDAGI
XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

**Buxoro
“Ilm ziyosi”
2024**

Keyingi paytlarda taniqli adabiyotshunos olim G'ayrat Murodovning G'ulom Shomurodov ijodiga bag'ishlangan risolasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari shoir Shodmon Sulaymon tashkilotchiligida shoirning "Diyor va yor" kitoblari chop etilishi akamizga kuch va ilhom bag'ishlagani shubhasiz.

G'ulom aka bugun oramizda yo'qlar. U kishining chehralarini endi faqat rasmlarda, teleekrandagi xotira lavhalarida ko'ramiz. Qalbi, qarashlari, ichki kechinmalari, orzu va maqsadlari yozgan manzumalari, bolalarga bag'ishlangan she'rlari, zamonaviy va tarixiy mavzulardagi hamda go'zal rivoyatlarga asoslangan dostonlarida abadiy muhrlanib qolgan. Demak ustoz G'ulom Shomurodov biz bilan, zamon bilan nafas olyaptilar, yashayaptilar.

Men ko'rgan, men bilgan G'ulom aka ana shunday inson edilar.

KICHIK TADQIQOTNING ULKAN SABOQLARI

Shodmon Sulaymonov,
filologiya fanlari nomzodi

Mumtoz adabiyotshunoslik va falsafa muammolari Sharq madaniy olamining o'lmas dahosi Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat qomusining muhim qirralaridan biridir. Fitratning bu sohadagi eng katta xizmati shundaki, u hukmron siyosiy mafkura tazyiqiga qaramasdan, Sharq adabiyotining ijodida ilohiy-irfoniy ruh bo'rtib turgan o'nlab namoyandalari asarlari haqida xolisona fikr ayta oldi.

Ta'kidlash joizki, Fitrat ayni ezgu maqsad yo'lida ko'p asrlik madaniyat tarixida sinovdan o'tgan barcha usullarni – majoz va ramzni, kinoya va mutoyibani, tanqid va tanbehni, mubohasa va munozarani ishga soldi. Eng muhimi, bu usullardan libos sifatida foydalanib, o'z hayoti va ilmiy-ijodiy taqdirini xatarga qo'yib bo'lsa-da, mumtoz salafar abadiyatiga sayqal berishga erishdi. Bu iste'dod sohibining Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Muhammad Solih, Turdi Farog'iy singari Sharq mumtoz adabiyotining o'nlab namoyanda-lari ijodiga oid tadqiqotlari buning yorqin dalilidir.

Mazkur tadqiqotlar orasida Fitratning otashnafas shoir Boborahim Mashrab hayoti va ijodiy merosini o'rganishga bag'ishlangan maqolasi hajm e'tiboriga va ilmiy-tarixiy miqyosiga ko'ra alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda bayon etilgan fikrlarning ilmiy ahamiyati va teran mohiyati u yaratilgan davrdan uzoqlashganimiz sari tobora ko'proq sezilayotir.

Atoqli olimning bu maqolasi uning o'z zamondoshlaridan farqli o'laroq o'ziga xos tadqiqotchilik uslubiga, ilmiy aniqlik va farazlar bayon etish tajribasiga, adabiy manbani badiiy mahorat nuqtai nazaridan baholay olish bo'yicha chuqur nazariy va amaliy ko'nikmaga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Biz olim yclubiga ergashib, "Mashrab" tadqiqoti haqidagi fikrlarimizni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar ostiga jamlashga urinib ko'ramiz. Binobarin, tadqiqotning o'ziga xosliklari va ilmiy-tarixiy ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

a) Abdurauf Fitratning bu maqolasi turkiy madaniy meros va diniy e'tiqodga yoppasiga hujum boshlagan sobiq mafkura yalovbardorlariga qarshi bitilgan o'ziga xos raddiyadir;

b) ayni shu guruh jazavasi tufayli boshiga yog‘ilishi muqarrar bo‘lgan ofatlarni avvaldan ko‘ra bilgan Fitrat Mashrab shaxsiyatiga kinoyaviy munosabat bildirish yo‘lidan boradi. Shunga qaramay, u vijdoni buyurgan ishni amalga oshiradi – milliy-madaniy merosni targ‘ib qiladi, Mashrab shaxsiyati va ijodini o‘rganish zaruratlarini har tomonlama asoslab beradi;

v) Fitrat maqolada tadqiqotchilikning eng muhim sharti bo‘lgan manbalardan foydalanish tajribasining betakror namunasini ko‘rsatgan. Mashrab shaxsiyati va ijodi haqida turli darajada ma‘lumot olish mumkin bo‘lgan o‘ndan ortiq manbani sanagan va o‘rni-o‘rni bilan ulardan foydalangan. Mashrab ijodi tadqiqiga kirishgan hamkasblarimiz e‘tibori uchun bu manbalar ro‘yxatini keltirishni ma‘qul ko‘ramiz: “Devonai Mashrab” xalq kitobi, Maleho Samarqandiyning “Muzakkir ul-as‘hob”, Abdul Mutallib Xo‘ja Fahmiyning “Majmuayi Fahmiy”, Said Hakimxonto‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Mirzo Olimning “Ansob us-salotin”, Majzub Namangoniyniing “Tazkirat ul-avliyo”, Sadriddin Ayniyniing “Namunai adabiyoti tojik”, N.Likoshinning “Divana-i-Mashrab”, P.Vyatkinning “Ferganskiy mistik devana-i-Mashrab” asarlari;

g) Fitrat maqolada rus olimlarining Mashrabni to‘qima qahramon sifatida talqin qilish bilan bog‘liq fikrlariga qarshi chiqadi, jumladan, P.Vyatkinning Mashrab shaxsi haqidagi da‘volari asossizligini isbot etadi;

d) tadqiqotdagi “Mashrab... birinchi tarbiyani Namanganda olgan, sayyoh, nasha chekuvchi, ko‘knorixonalarda turuvchi, jinnimijoz bir qalandar shoir bo‘lgan” qabilidagi fikrlarni o‘qib, sapchib tushmasligimiz, aksincha, bu “Qiyomat”, “Qiyshiq eshon”, “Zayd va Zaynab” kabi “g‘ayriislomiy” hikoyalarni yozib, “Xudosizlar” jurnalida chop ettirgan adibning o‘ziga xos himoya quroli bo‘lganligini anglashimiz lozim. Agar shunday bo‘lmaganida, Fitrat maqola so‘ngida yana ustalik bilan asl maqsadiga qaytib, “Mashrabning o‘z zamonida teran mutasavvif va kuchli shoir bo‘lg‘anini” e‘tirof etmas edi;

ye) Fitrat tadqiqotda Mashrab dunyoqarashi masalasiga dadillik bilan kirib boradi va malomatiylik, ayniqsa, qalandarlik haqida ancha mukammal ma‘lumot beradi. Shu asnoda tasavvufga befarq emasligini anglatib, shariat va tariqat haqidagi fikrlarini Mashrab shaxsiyatiga oid mulohazalariga uyg‘unlashtirgan holda bayon etadi;

yo) olimning Mashrab ijodiy merosi haqidagi fikrlari juda muhim: “Devonayi shoh Mashrab” xalq kitobi va boshqa qator tazkiralardagi parchalarni o‘zaro qiyoslagan Fitrat ular muallifini aniqlashda eng maqbul yo‘ldan borgan – uslub masalasiga diqqat qaratgan. Ayni shu usul olimning “Mab dai nur” muallifini aniqlashga oid qarashlarida ham yetakchilik qiladi. Maqolani nashrga tayyorlagan fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyev qaydiga ko‘ra, Fitrat tadqiqoti “Mab dai nur” muallifi atrofida uyg‘ongan bahslarga qo‘yilgan nuqta bo‘ldi;

j) maqola Abdurauf Fitrat siymosiga xos eng muhim fazilatlaridan yana birini – kamtarlikni namoyish qila oladigan muhim hujjatdir.

Fitratning hamma olimlarda ham uchrayvermaydigan bu odamiy fazilatni barcha narsadan ustun qo‘yganligi mana bu qaydlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Qalandar

va qalandarlik haqida bera olganimiz shu nuqsonli ma'lumot ularning ijtimoiy mavqe'larini chamalab bo'lsa ham belgilashga yordam qila olsa kerak".

Olimning "Kimyo" muallifi masalasida bayon qilgan fikri esa uning zo'rma-zo'rakilikni xush ko'rmaganligini, demakki, so'z oldidagi andishani ulug' bilganligini ko'rsatadi: "Buxoroda bosilg'on "Mab dai nur"ning oxirida "Kimiyo" ismli bir kitob bor... Lekin buning ham haqiqatan Mashrab tomonidan yozilib-yozilmaganiga oid qoniqarli bir ishorat va qaydga uchray olmaganimizni e'tirof qilamiz".

ISTIQLOL YILLARI BUXORO ADABIY MUHITIDA DOSTON JANRIDAGI BADIY IZLANISHLAR

H.O. Safarova,

BuxDU, f.f.n. dotsent.

Annotatsiya: Maqolada istiqlol yillarida Buxoro adabiy muhitida doston janridagi badiiy izlanishlar haqida fikr yuritilgan. Samandar Vohidovning "Anduh" va "Sunbula" dostonlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: S.Vohidov, T.Ahmad, O.Safarov, "Za'faron nidolar", "Buxoriylar yoxud o'n ikki yulduz haqida qo'shiq", "Anduh", "Sunbula", doston.

Аннотация: В статье рассматриваются художественные исследования эпического жанра в литературной среде Бухары в годы независимости. Анализируются эпосы Самандара Вахидова «Андух» и «Сунбула».

Ключевые слова: С. Вахидов, Т. Ахмад, О. Сафаров, «Шафран кричит», «Бухарисы или песня о двенадцати звездах», «Андух», «Сунбула», поэма.

Abstract: This article discusses artistic research in the epic genre in the literary environment of Bukhara during the years of independence. "Anduh" and "Sunbula" epics of Samandar Vohidov are analyzed.

Keywords: S.Vahidov, T.Ahmad, O.Safarov, "Saffron shouts", "Bukharis or a song about twelve stars", "Anduh", "Sunbula", poem.

Istiqlol yillarida Buxoro adabiy muhitida ham o'ziga xos yangilanishlar jarayoni kechdi. Adabiy turning deyarli barcha janrlarida asarlar yaratildi. Jumladan, bu yillarda doston janri rivojlandi. S.Vohidov, T.Ahmad, O.Safarov singari adabiy harakatchilikning faol namoyandalari ijodi bunga misol bo'la oladi. T.Ahmad "Za'faron nidolar", O.Safarov "Buxoriylar yoxud o'n ikki yulduz haqida qo'shiq" dostonlarida tarixiy o'tmish, S.Vohidovning "Anduh" dostonida esa zamonaviy mavzular qalamga olingan.

S.Vohidovning "Anduh" dostonida voqealar muallif tilidan bayon etiladi. Biroq asar an'anaviy dostonlardan farqli ravishda yechimdan boshlanadi. Ya'ni ijroqo'm raisasining onasi vafot etadi. Shundan so'ng uning hayotida o'zgarishlar vujudga keladi. Raisa o'z-o'zini taftish qilish orqali o'z kechmishlarini ko'z o'ngidan o'tkazadi.

Shoir bir qator hayotiy lavhalar orqali yolg'iz ayolning anduh to'la hayotini, uning qalb tebranishlarini, fojiaiy jihatlarini qalamga olishga intiladi. Dastlabki voqea Keskanchinorda bir kelinchakning o'zini yoqishi bilan aloqador. Raisa bu xabarni eshitgach, dalda bo'lish istagida fojia yuz bergan xonadonga boradi. Biroq uning dardi, g'amlari yanada ortadi. Sababi, kelinchakning onasiga yupanch tilab turganda, u raisaning yolg'izligini yuziga soladi:

– O'zganing dardiga qozilik oson,
Sen farzand dog'ini bilmaysan, rais.
Bilarding birorta tug'ib o'stirsang,
G'o'ra bo'lmay bolang, bo'lganda mayiz...[4,213]

Raisa uchun bundan ortiq dashnom bo'lishi mumkinmi? Ana shunda u yolg'izlikni yanada chuqurroq his etadi va umri besamar o'tayotganligini anglaydi. Ikkinchi voqea onasi tomonidan Qimmat buvi haqida aytib berilgan mungli hikoyadir. Qimmat buvi endigina uch kunlik kelin vaqtida erini 37- yil qatag'oni o'z komiga tortadi. Shundan boshlab uning umri «kutish bekatlari»da kechadi:

Jangga ketganlar keldi,
Jondan kechganlar keldi.
Kelmagandan, loaqal,
«O'ldi»deb xabar keldi.
Undan hech bir sado yo'q,
«Bor», «Yo'q» degan nido yo'q [4,217].

Qimmat buvining ohu afg'oni yanglig' yangragan yuqoridagi satrlarda nafaqat bir jabrdiyda ayolning, balki millatning qayg'usi aks etgan. O'zbek ayolining matonati, sadoqati yolqinlanib turibdi. Raisaning onasi bu mungli hikoyani so'zlab berar ekan, qizini bag'riga bosib «qolmasinda bekas bandasi», – deydi. Hayotda «na do'st, na hamroh, na hamroz» topgan raisa shu voqeani yodga olar ekan, achchiq taqdiridan unsiz yig'laydi.

Uchinchi voqea Adol dugonasining raisani to'yga chorlagani bilan bog'liq. U to'yda elning rahbari sifatida yoshlarga nikoh qog'ozini topshirmoqchi bo'lganida, kayvoni xola izn bermaydi: ayolmand kishi bunday sharafiga loyiqqligini aytadi. Bu so'zlar raisa qalbiga xanjar yanglig' sanchiladi. Raisa ham shaxsiy hayotda baxtga erishishi mumkin edi:

Ko'ksimda tosh emas, qiz qalbi edi,
Unda ham yashardi gard qo'nmagan sir.
Mansab andishasi barini yedi,
Huvillab qoldi u sahroday taqir.

Barcha qizlar kabi uning ham o'z muhabbati – «gard qo'nmagan siri» bor edi. Hatto yaqin dugonasi orqali bu sirini oshkor ham qilgan edi. Uning rahbarlikka, mansabga mukkasidan ketganligi bu tuyg'uni yemira boshlaydi. Ko'nglidagi yigit

uning mansabdorligiga ishora qilib, «boshga uramanmi tafti yo‘q oyni» degan javobi raisani yerparchin aylaydi. Shundan so‘ng u butun hayotini ishga bag‘ishlaydi.

Shoir raisaning dardli kechmishini biri ikkinchisini taqozo etadigan voqealar tizimida berib, raisa qalbida anduhga aylangan insoniy kechinmalar silsilasi namoyon etadi.

Shoirning “Sunbula” dostoni istiqlolimizning Buxoro timsolidagi tasviridir.

Doston muqaddima, asosiy qism va umidbaxsh Sunbula” qo‘shig‘iga stilizatsiya shaklida yaratilgan badiia bo‘lib, doston ekspozitsiyasini tashkil etadi. Oddiy folklorizm namunasi bo‘lgan bu qo‘shiqning dastlabki qismida sho‘ro saltanati davrida xalqimizning erksizlikda kechgan og‘ir va armonli hayoti tasvirlanadi:

“Sunbula, ey sunbula,
O‘rab olay gul bilan”.
Xalqim qo‘shiq kuylardi,
Ko‘zdan oqqan sel bilan.
Bog‘laringda to‘kinlik,
Tonglaringda sokinlik.
Yetmas faqat erkinlik,
Farqsiz edik qul bilan. [5,5]

Chindan-da, xalqimizning hamma narsasi bor edi go‘yo. Ammo hammasi yolg‘on asosida qurilgan edi:

Tinglab, o‘sganim–yolg‘on,
O‘qib yozganim–yolg‘on,
Uqib, sezganim–yolg‘on,
Yurdim yolg‘on yo‘l bilan [5, 7].

“Erking o‘zingda” deyilardi, lekin o‘sha erkning o‘zi yo‘q edi, “boyliklaring o‘zingniki” deyilardi, lekin o‘sha Vatan o‘zgalar mustamlakasi edi. Shoir uning ozod bo‘lishini “yarim asr” orzu to‘la dil bilan kutganini izhor etarkan, yana “Sunbula” qo‘shig‘iga murojaat qiladi va haqiqiy erk shodiyonasidan xursand bo‘lib, Istiqlol vasfidan doston bitadi. Shu zaylda dostonning asosiy qismiga kirishiladi. Asosiy qism esa 1991-yilning 1sentyabrdan 1920-yilning 2 sentyabrigacha kechgan 71 yillik tarixni o‘z ichiga oladi. Asosiy qism 15 fasldan iborat bo‘lib, “1 sentyabr, 1991-yil” manzumasi bilan boshlanadi. Unda XX asrning 91 yili Sunbula –Sentyabrida dunyoni hayajonga solgan hodisa – “qadim Turonda istibdod jon uzib”, “zulmat saltanati zer-zabar bo‘lgani” va bu olamshumul hodisa jahon ahlini, jumladan, O‘zbekiston va uning xalqi quvonchini ko‘klarga yetkazgani, qolaversa, mustaqillikni e‘lon qilgan Yurtboshi jasoratini va uning xalqqa murojaati voqealari poetik tasvirlangan. Shoir Yurtboshining bosiq va vazmin nutqi orqali yorqin qiyofasini chizadi:

Sen ham xalqsan!
Xalqligingga qayt endi!

Bu jahonga kimligingga ayt endi!
Gulxan eding, suv sepib kul qildilar,
Gulshan eding, o't unmas cho'l qildilar.
Kul ostida qaqnus bo'lib qanot yoz,
Ko'k toqiga burgut bo'lib yoz parvoz.
Yetar endi kun ko'rganing quldayin,
O'z yurtida o'zingdaysan xo'jayin.
O'zbekdarsan, o'z bekliging anglab ol,
O'zligingga dil ko'zi-la nazar sol!
Asli nasling kimligini yaxshi bil.
Mustaqilsan!
Mustaqilsan!!
Mustaqil!!! [5, 22].

Bu nutqdagi poetik da'vatkor ruhni kuchaytirishda shoir foydalangan ritorik murojaatlar, tazodlar, ruhiy va ko'chimlar, istiora va qo'shqofiya, to'q va och qofiyalar, takrorlar hamda radiflar o'ziga xos vazifani bajargan. Shoir mustaqillik e'lon qilingan kunni ta'riflashda eng ezgu so'zlarni, eng latif o'xshatishlar jonlantirishlarni, tarovatli epitetlarni qo'llaydi:

Saharning yog'dusi bugun o'zgacha,
Gullarning kulgusi bugun o'zgacha,
Anor oqimida o'zgacha tug'yon,
Qishloq har kungidan ming karra xushxon.

Shoir "Kuz edi..." faslida "O'sha kun"dagi ko'tarinki kayfiyat tarannumini davom ettirdi. "Sabr tubi oltin" deganlaridek, nihoyat "bekorga o'lmagan Fitratlar oh!" sho'ro saltanatini chok-chokidan titib, sho'rini quritdi. Tasodifni qarangki, bu kun ham Sunbula – Sentyabrning 1-kuniga to'g'ri kelibdi. Ammo 71 yildan keyingi – 1991-yilning 1-sentyabri – bu Kun! Shu tariqa Sunbula–Sentyabr shoir uchun ramziy mohiyat kasb etgan.

Shoir dastlabki baytda zulavofi'–ko'p qofiyalilikdan ya'ni dastlabki satrdagi "karvonlarga" so'ziga keyingi satrdagi "sarsonlarga" so'zini, yana shu tartibda "mayoq edi-chiroq edi" va "xor bo'ldi-ko'r bo'ldi" qofiyalari tizimini tuzib, faqat ohang o'ynoqiligini ta'minlash bilan cheklanib qolmay, tazod va radiflar vositasida poetik fikrning jozibali ifodalagan.

"Istiqlol, istiqlo", "Istiqlol kunlari Fitrat bog'ida" kabi fasllarda shu kurashlarda jasorat ko'rsatganlarni alqarkan, istiqlo so'zini shunchaki ezgu so'z sifatidamas, balki insonning o'z erki, fikri va ezgu so'zi uchun kurashlarda erishgan yashash huquqini ifodalovchi ijtimoiy mohiyatga ega hodisa sifatida ta'riflaydi:

Istiqqol,
Istiqlol,

Ne buyuk so‘zsan?
Inson toleida ne suyuk so‘zsan?
Nechuk yo‘llaringga az ro‘zi azal
Odamzod jonidan poyandoz yozar? [5,56].

Shoir dastlabki satrni poetik takror asosidagi hayajonbaxshligini kuchaytirish maqsadida uch satrga bo‘lsa, keyingi satrlarda ritorik so‘roq vositasida shunday natijaga erishgan. Aslida shu ritorik so‘roqlar erk uchun kurashgan xalqning jasorati edi. “Shiroqu To‘marisi”, Tarobiysi, Najmiddin Kubrodek sohib siymoni, Amir Temur sohibqironi borligini talmeh san’ati vositasida eslatib o‘tadi:

Bu xalqni bir umr qul qilib bo‘lmas,
Erkini yoqsa ham kul qilib bo‘lmas.
Kulidan tirilar samandar yanglig‘,
Qanotin har pati taratar yallig‘.

Ularga izdosh bo‘lib, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Fayzulla Xo‘jalar erk uchun kurash maydonida chaqnadilar. Natijada erk tantanasidan iborat istiqloq qaror topdi. Uning quvonchini Fitrat bog‘ida pildirab o‘ynayotgan bolakay chehrasida, shu bog‘ xiyobonida qo‘lma-qo‘l ushlab ketayotgan oshiqlar sevgisida “hassasini nariga surib” qomatini adl tutib borayotgan nuroniylar shiddatida ko‘rish mumkin.

Dostondagi har bir fasl mustaqil voqea yoki voqelik tafsiloti yohud tasviriga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, o‘sha voqea yoki voqelikning har biri o‘zidan oldingi voqea yoki voqelikning izchil mantiqiy davomi sifatida o‘zaro bog‘lanib, butun doston davomida yaxlit liro-yepik syujetning shakllanishiga xizmat qilgan.

Istiqloqning sakkiz yilligi tantanasida kutilmagan mo‘jiza sodir bo‘ladi: osmon uzra parvoz qilayotgan turnalar karvoni xushnudlik kayfiyatidagi odamlar boshi uzra bir charx urib, janub tomon parvozini davom ettiradi.

Turnalarning bunday qilishi hamma narsadan ham yaxshilik izlab o‘rgangan shoir yuragini jizillatadi, uning ko‘ngil torlari chertilib, qalami qog‘oz uzra sayr etadi:

To‘linday qalqidi birdan izdihom,
Samoga qadaldi ming-minglab nigoh.
Qarsaklar yangradi,
Qolish bardavom,

To‘yga to‘yonami yubording Olloh?! (O‘sha manba, 30-31 bet.)

Turnalarning erkin parvozi Istiqloq barqaror etgan erkka muvoziy keltirilganligi tufayli ularning qolishi samimiy ramziy ma‘no kasb etgan.

Xulosa, Samandar Vohidovning “Anduh” dostonida yolg‘izlik mohiyati, yolg‘iz ayol qismatining g‘am- qayg‘uga to‘la onlari aks ettirilsa. “Sunbula” dostoni esa istiqloq mavzuida yozilgan mukammal asarlardan biri sifatida nafaqat shoir ijodida, balki milliy istiqloq davri o‘zbek epik poeziyasida ham o‘ziga xos o‘ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс... –Т., 2004. –Б.188.
2. Жамол Камол. Олимнинг шеър дафтари. Китобда: Сафаров О. Болалигим қолган кўчалар. –Тошкент: “Муҳаррир”, 2010. –Б.5.
3. Сафаров О. Болалигим қолган кўчалар. –Тошкент: “Муҳаррир”, 2010. –278 б.
4. С.Воҳидов. Бухором бор, Бухором бор... (Болалар учун шеърлар, дostonлар, ривоятлар).–“Бухоро” нашриёти, 1997, 4,5 б.т)
5. С.Воҳидов. Сунбула (Дoston, шеърлар, ғазаллар).–“Бухоро” нашриёти, 2002.
6. Н. Safarova, A crow, an owl, a sheep, a bird turned your flowers....:(On the example of the work of the poet Samandar Vahidov)Center for Scientific Publications (bukhdu. en).
7. Н. Safarova, Theformation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).8 (2021)
8. Н. Safarova, Navoi does not need a soul, but. Center for Scientific Publications (bukhdu. en).3 (2021) 7. A. Hamroyev, H. Jumayeva, E3S Web of Conferences 420. 10007 (2023)
9. H Safarova. The agony of missing the sun and heat. Center for Scientific Publications (bukhdu. en) 8(8) (2021)
10. Н. Safarova, et.al., Cyberpsychology, Behavior and social Networking 24, 12 (2021).
11. H.O. Safarova. Parents double wings to the child. Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2021).

O‘ZBEK VA FORS-TOJIK ADABIY ALOQALARI S. AYNIIY TALQINIDA

*Rajabova Ma’rifat Baqoyevna,
BuxDU professori, f.f.d.*

Annotatsiya. Maqolada Sadriddin Ayniy tadqiqotlarida fors-tojik va turk (o‘zbek) adabiy aloqalarining shakllanishi xususida so‘z boradi. Olimning “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti” nomli maqolasida A. Navoiyning forsiy hamda ilmiy asarlarining fors –tojik adabiyotiga ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, ustoz Ayniyning Navoiy va Jomiy adabiy aloqalari tarixi va ushbu aloqaning madaniy ahamiyati masalasiga munosabati muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. adabiy aloqa, fors-tojik adabiyoti, “Ustod Ro‘dakiy”, “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti”, A.Jomiy va Navoiy.

Аннотация. Статья посвящена формированию персидско-турецких и узбекских литературных отношений в исследовании Садриддина Айни. В своей статье «Алишер Навои и таджикская литература» Анализируются взгляды Навои на персидскую литературу. Кроме того, освещается отношение Айни на

<i>Abduhamid Xolmurodov</i> TERAN TAHLILLAR SAMARASI.....	177
<i>G'ayrat Murodov</i> SHOIR SHE'RIYATI.....	183
Shoira Axmedova XX ASRNING 20-YILLARI O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGIDA TANQIDIY-BIOGRAFIK OCHERK JANRI RIVOJIDA FITRATNING O'RNI.....	188
<i>Darmonoy O'rayeva</i> ASAD GULZODAI BUXORIY SHE'RIYATIDA FOLKLORIZMLAR.....	192
<i>Dilrabo Quvvatova</i> QUTLUG' BIR MAKONDA GUL OCHDI CHECHAK.....	196
<i>Qahramon To'xsanov</i> SHAVKAT BUXORIY IJODIDA DINIY VA TASAVVUFIY G'OYALAR IFODASI.....	204
<i>Husniddin Eshonqulov</i> MUJIRM – OBID VA UNING G'AZALNAVISLIK MAHORATI XUSUSIDA.....	208
<i>Nazora Bekova</i> ABDURAHMON TAMKIN BUXORIYNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI.....	214
<i>Sh.A.Hayitov M.Muxammadova</i> SHOH – DARVESH KONSEPTINING RUSTAM BAHODIRXON TIMSOLIDAGI ILMIY- BADIY IFODASI.....	219
<i>Ergash Ochilov</i> NOSIR BUXORIY IJODIDA FAXRIYA BAYTLAR.....	222
<i>Ergash Ochilov</i> NOZIKTA'B VA DAQIQXAYOL SHOIR.....	228
<i>Dilnavoz Yusupova</i> HASANXOJA NISORIY ARUZSHUNOS HAM BO'LGANMI?.....	233
<i>Zilola Amonova, Gulchehra Murodova</i> QUL UBAYDIY IJODIDA YASSAVIYLIK TA'SIRLARI.....	237
<i>Sulaymon Shodiyev</i> MEN BILGAN G'ULOM AKA.....	242
<i>Shodmon Sulaymonov</i> KICHIK TADQIQOTNING ULKAN SABOQLARI.....	246
<i>Hilola. Safarova</i> ISTIQLOL YILLARI BUXORO ADABIY MUHITIDA DOSTON JANRIDAGI BADIY IZLANISHLAR.....	248
<i>Ma'rifat Rajabova</i> O'ZBEK VA FORS-TOJIK ADABIY ALOQALARI S. AYNIIY TALQINIDA.....	253
<i>Nazzora Bekova, Dilnavoz Achilova</i> ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE'MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSIGA OID.....	257
<i>Normurod Hakimovich</i> FITRATNING PUBLITSISTIKASIDA MILLAT TALQINI.....	261
<i>Rajabov Dilshod, Ahrorova Nigina</i> TOSHPO'LAT AHMAD IJODIGA CHIZGILAR.....	265
<i>Davronova Shohsanam</i> ABDURAUF FITRAT SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI.....	269
<i>Rajabova Ra'no</i> AHAD HASAN IJODINING MA'RIFIY AHAMIYATI.....	273
<i>Mavluda Ergasheva</i> DAVLAT MUSTAQILLIGI VA ABDURAUF FITRAT.....	277
<i>Saidova Rayhon</i> ABDURAUF FITRAT'IN YORUMLANMASINDA EDEBIYATTA "ŞİİR VE ŞAİR" SORUNLARI.....	281
<i>Sodiqova Dilorom</i> LIRIK JANRLAR YARATISHDA SHOIRA	